2. YOnma-yon va bir chizikda turib shugullanadiganlarni - kator safi deb ataladi.
3. Safning ung va chap tomonlari flang deb ataladi. Burulishlarda flang uzgarmaydi.
4. SHugullanuvchilarning xarakat tomoni safning oldi kismi xisoblanadi.
5. Safning oldiga karama-karshi turgan saf - urta xisoblanadi.
6. SHugullanuvchilarning orasidagi masofa interval deyiladi.
7. Safning eni bu flanglar orasidagi masofa.
8. SHugullanuvchilarni safda orkali-orka turishi kolonna deyiladn.
9. SHugullanuvchilarni safning ichidan ketgan masofa - oralik masofa deyiladi.

YU. Birinchi turgan sherengadan kollonnada oxiri turgan sherengagacha bulgan masofani safning chukuri deyiladi.

11. Bir katorda turgan shugullanuvchilar, boshka katorda turgan shugullanuchilar orasida turganini ikki katorli saf deyiladi.

12. Ikki katorli safda orkama-orka turgan shugullanuvchilarning safi kator deyiladi. Orka kator xamisha tulik bulishi shart.

1-3. Kollonnada (yulovchi) yunaltiruvchi shugullanuvchi xarakat kiluvchi birinchi bulib yunalish buyicha yuradi.

14. SHugullanuvchi va xarakatlanuvchi kollonnada oxirgi bulib yuradi.

Komandani talaffuz kilishda asosiy koidalar.

1. Bajaruvchi va taxminiy komandalar (ungga karab kadam bos), bajaruvchi komanda esa (rostlan, tik tur). Taxminiy kismda komandalar anik. Baland va uzunrok beriladi, shugullanuvchilar fikrini bir joyiga jamlashi uchun va shu komandani bajarish. Buyrukning bajaruvchi kismi baland, oz muddat davomida, yakka xolda zavk bilan beriladi.

2. Xar bir taxminiy buyrukda shugullanuvchilar tik turgan xolatda buyrukni tinglaydn.

3. Saflanish uchun buyrukni berishdan oldin safning nomini, keyin xarakat yunalishini kolonnada bittadan yoki uchtadan burilib xarakatga komandasini beriladi: "Kollonnaga uchtadan chapga, ungga kadam bos".

4.. Ajratish uchun yunalish, masofa kengligi va bajarish usuli kursatiladi. «Urtadan kuyilgan kadam bilan ikki kadamga ajral». Xamma saf mashklari keyingi guruxlarga ajratiladi.

1. Saflanish.
2. Joyda saf mashklari.
3. Joyda saflanish.
4. Xarakatlanish usullari.
5. Xarakat yunalishini uzgartirish.
6. Xarakatda saflanish.

Saflanishlar. Darsdan oldin gurux yoki sinfni saflash kerak. Buning uchun aloxida buyruklar bor.

a) SHerenga buyicha saflanish. SHerengaga saflanish uchun avvalo ukituvchi oldiga yuzi bilan turishi kerak. "Rostlan", ung flang turgan nuktadan buyruk, beradi "bir, ikki, yoki uchta va xokazo bir katorda saflanadi". Gurux ukituvchidan chapda saflanadi.

b) Kolonnaga saflanish. Safdan (kolonnaga) degan komanda beriladi. Ukituvchi komanda berib, uzi "Roslan" komandasiga turadi oradagi masofa joyga nisbatan 1 kadam bulishi kerak.

Gurux ukituvchinnng orasidan saflanadi.

v) aylana bulib turish uchun: "Aylanaga turing" komandasi beriladi. Joyda turib safdagi komandalar.

1. Roslan.
2. Tekislan.
3. Erkin (malkay)
4. Ung(chap) -erkin
5. Tuxta.
6. CHap-ga
7. Ung-ga
8. Aylan.

Gimnastika mashgulotlarida jaroxatlanishning oldini olish.

Mashgulotlar joyi va ularni jixozlash

1. Gimnastikada jaroxat olish sabablari.
2. Turki mashklarii bajarishda jaroxatlanishning oldini olish. YOrdam va extiyot choralar.
3. SHifokor nazorati va uz-uzini nazorat kilish.
4. Gimnastika mashgulotlarini ta'minlash.
5. Mashgulotlar joyiva ularni jixozlash.
6. Gimnastika asboblari
7. Asbob, uskunalar:

Mashtulotlarda ukituvchi shugullanayotganlarning tulik xavfsizligini ta'minlashi shart. Kupgina gimnastika mashklari, ayniksa, snaryadlarda bajariladiganlari belgilangan texnik va jismoniy tayorgarlikni talab etadi. Mashklarni bajarishdagi noanikliklar odatda snaryadlarga utirish, sirganish va tikilishlar bilan boglik bulib, ular xarakatlanish apparatlarning turlicha shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Kattik, pol ustiga ishkalanishni oldini olish uchun gimnastchilar tuglashdan matroslardan, gimnastika moylari) foydalaniladi. Ulardan tugri foydalanmaslik xam turli jaroxatlarga olib kelishi mumkin. Jaroxatlanishlar kupincha ukituvchi yoki ukuvchi tomonidan kerakli tashkiliy va metodik talablarning buzulishi sababli yuzaga keladi. Gimnastikada jaroxat olishning asosiy sabablari:

1. Mashgulotlar tashkil etish koidalarini buzish.
2. Metodika va ukitish tamoyillariga rioxalmaslik.

3. SHugullanuvchilar bilan tarbiyaviy yoshlarning etarli emasligi.
4. Jixoz va asboblarni uz vaktida tekshirib turmaslik.
5. Sanitar-gigienik jaroxatlarning buzilishlari,
6. Muntazam shifokor nazorati va uz-uzini nazorat kilishning yukligi.
7. YOrdamchi extiyog choralariga e'tibor bermaslik yoki notutri foydalanish.

Gimnastika mashgulotlari belgilangan standartlar talabiga javob berishi kerak. Snaryadlarni bilib tugri kuymaslik jaroxat olish uchun sharoit yaratib beradi. Snaryadlar orasidagi masofalorni belgilashda sakrashdan keyin yugurish mumkinligini xisobga olish kerak.

Mashgulotlarda jaroxatlanishning oldini olish uchun ukuv-mashk jarayonlarini anik tashkil etish zarur. Uzboshimchalik kilib ruxsatsiz snaryad oldiga borish ma'n etiladi. Zalga kirib borish ukituvchi raxbarligida tashkil etilishi kerak.

Bulim (guruxlar) mashgulotdagi ukituvchilar tarkibi soniga karab aniklanadi. SHikastlanishlarning oldini olish uchun shugullanayotganlar sport kiyimi belgilangan talablarga javob berishi kerak: yumshok oyok kiyimi, trikotaj shimplar, mayka, keng kurtka. Snaryadlarni joylashtirish turlicha bulishi mumkin, joyiga maxkamlanadigan snaryadlar joylashishiga kura boshkalari - joylashtiriladi. Sakrab erga tushish joylarida ikki kavat matolar yozildi.

Ularning orasida ochik joylar bulmasligi, bir-birining ustiga chikib ketmasligini doim nazorat kilib borish kerak. Xar yili ochib kuyiladigan snaryadlar maxkamligini tekshirib turish.

Mashgulotlardan sung xullab tozalab turish, akrobatlar yulkasini va ishimni xafasiga bir marta kerak. Bu choralar gigienik sharoitni yaxshilash va shikastlanishning oldini olishga yordam kursatadi. Extiyot choralar fakatgina psixologik masalalarni xal etibgina kolmay, jaroxat olishni oldini olishga yordam beradi. Extiyot choralar deganda mashklarni bajaruvchiga uning bajarish xollarida ukituvchingin uz vaktida yordam berishga tayyorliligi tushuniladi. Extiyot choralar murakkab xavfli mashklarni; bajarishda muxim axamiyatga ega buladi. Amalda individual va guruxli extiyot choralarini kullaniladi, bunda texnik vositalaridan foydalaniladi: maxsus belbogichlar, bogichlar tirsaklarga maxkamlanuvchi bogichlar, yumshatuvchi porolondan matrats, porolonli chukurlar va boshka texnik vositalar. Lekin bularga juda xam berilib ketish mumkin emas, chunki ortikcha ishonchszilik paydo bulib shikastlanishga olib kelishi mumkin. Extiyot choralarini kursatish uchun yordamda turgan kishi mashk bajarilishi texnikasiyi yaxshi bilishi va sharoitga karab yordam kursatish uchun tugri joy tanlay bilishi, turli yordam kursata bilishi, mashknini bajarilishiga xalakit bermasligi kerak. Jaroxat olishni yukotishdagi muxim chora nazorati va ORU uz-uzini nazorat kilish xisoblanadi. Jaroxat ongiga mashgulot joylariniig xolati talabga javob bermasligi sabab bulishi mumkin (polning sirdganchikligi begona predmet tusiklar mayjudligi). Juftlikda bajariladigan umumiy rivojlanish mashklari - extiyot chorasi va yordam kursatish maxoratini egallash boshlangich shaklidir.

Akrobatik mashklar. Jaroxatlarning asosiy sabablari - shugullanayotganlarning texnik va

jismoniy tayyorgarligi etarli emasligi bulishi mumkin. Odatiy xatolar: kuli yoki oyogi bilan kuchsiz silkinish, tananing bushashganligi, erga tovon bilan tushish yoki oyokning bushashganligi, tayyorlov mashklarda, startga e'tibor tavsiya etiladi. Ul bilak buginlarini tayyorlash axamiyatiga eta - bilaklar anlanma xarakati, kulga yotgan xolda sakrash: yotgan xolla kulda xarakatlanish: turgun xoldan egilib oldnngi kulga tiralib yikilish: shu sababli extiyot chorasi kullahda ukuv jarayonida extiyot yordam kursatuvchidan talab kilinadi:

- 1) Element mashk texnikasini bilish.
- 2) Uz vaktida extnyot yorsamini kursatishni ta'minlovchi tezlingi.
- 3) Extiyot yordami kursatish uchun tugri va tez joy tanlay (tt).
- 4) Kuchlanish uchun kulay vaziyatni tanlay bilish:

Gimastikada extiyot yordami kursatish uchun panja osib kuyiladigan belbok kullaniladi. SHugullanuvchilarni uziga-uzi extiyot yordami urgatishga alovida e'tibor berish zarur. Bu mashklarda chukurlikka sakrab oyokka, mato ustiga, orkaga, koringa tushishdan foydalanadilar. Kupincha jaroxatlarga mashgulot joylarining tayyorlanishi etarli emasligi sabab buladi. Matlarning bir-biriga anik jipslashtirilishiga alovida e'tibor karatish zarur. (Brevnyu) xoda gurak usti mashk elementlari Xodada bajariladigan mashklar ORU va akrobatik mashklarga uxshab ketadi. SHuning uchun mashklarni ishonch bilan bajarishni aval polda, gimnastika skameykasi, pastrok xodada bajarish kerak, xodalarda mashkning extiyot chorasi kuriq bajarish zarur. Xozdpa aqiet choradariusullarni:

1. Sakrab maok bsisarilpizda sakrash joyida zofiyog chorasi kuriq, keyin darxol oyoklari biyaan erga tushadigan joyga utb turish zarur. 1 Orkaga aylanib gakrash mashkini bajaraepavda yon tomoni va orka tomopidan extnyot choralarini kurish, kollariga tirashb turib silkinishparvda lszaga turib kush va korn tomonidan yordam kursatish kerak, yon tomonga aylanishga orka tomonga ugib, kuli va belidan ushslash kerak. Tfnik (yakkachup) va br»slarda maovlar bajarixda avval bugin va muskullarga ogirlik tushadi, kollar va ayniksa elka kuchi ishlatnladn. Turnik (yakkachup) va bruslarda mashklar bajarish. Mashklar yaxshi bajaryalmay yoki noaniklikka yul kuynlsa, snaryadlarga urnlib ketish yoki ulardan yiknlhb tushishga olib keladi. Sakrab tushishlarda erda noanik tushish xollari sodir bulishi mumkin. YAkka chupda mashklar bajarishda kollar va bugin muskullarni va ayniksa, elka ogirlik tushadi. Snaryadlarnnng kimirlashi, tekis gurmasligi, maxkamlagichlarning bu - zukligiga yul kuyilmandn. Extiyot yordami kursatuvchi xarakatlar borishini kuzatnb turishi, shu bilan birga kullari bilan maxkam ushlab olganini kuzatnb turishi kerak. Extiyot yordami kursatuvining maxorati shugullanuvchinnng kay tomonga yikilib tushishi mumkinligini «ldiidai kura bilishnoan iborat buladn. Bruslarda mashk bajarish mashklar kulga tayanib bajariladi. Elka muskullari bush bulsa, elka va kukrak asosiy buginlari shikastlayamshiga olib kelipt mumkin, elkalarni shikasglanishdan saklanish uchun uzun engli balki kiyish tavsiya etiladi.

Bruslar elka kengligi buyicha urnatilib uning maxkamlanganligi tekshirilib kuriladi. Bruslarning xamma tomonlariga matolar yoziladi. Xalkalarda mashklarni bajarshi -oldini olish) uchun xalkalarda nazoratsiz mashklar utkazishiga yul kuyilmaydi. Xalkalarda maxkamlangan joylari tekshiriladi. Extiyot yordami kursatuvchining asosiy joyi yon tomonda. Otda kul bilan mashklar bajarish. Bu snaryadda jaroxatlar paylar tortilishi, urilib ketish, buginlar shikastlanishi barmoklari jaroxat olishi mumkii. Ot kimirlamaydigan etib polga maxkamlangan bulishi kerak. YUgurib aylanib sakrash - notugri yugurish. notugri belgilash, kukrakning anik joyida turmasligi erga tushish joyidagi xarakat beruvchi xolatlar, texnik tayyorgarlikning etarli emasligi - bular xammasi jaroxat olishga sabab bulishi mumkin. Ishonchli extiyot yordami - yugurib aylanib sakrashda jaroxat oldini olishning muxim omillaridir. Oyoklarni yoyib, egib, va egilib sakrashlarda extiyot yordami asosiy usullari:

extiyot yordami beruvchi ot old tomonini va erga tushish joyidan bir oz yon tomonda turadi, gimnastkachi kipi bilan mil tanibi vaziyatini mashk kilish paytida uni ikki kul bilan elkasidan yoki bir kul bilan elka olib, boshka kul bilan elka yoki kukragidan ushlab u bilan birga kollarida sakrayotganda xarakatni bajarish kerak. Xar bir sakrashdan sung kuprikdan snaryadgacha bulgan masofani tekshirib turish kerak. Erga tushish joyi uzunligi 5m dan kam bulmasligi kerak. Matras ikki kavatdan yozilsa yaxshirok buladi. Gimnastik mashklarni bajarish texnikasini urganish bilan bir katorda ukituvchi raxbarligida jismoniy yordam va extiyot yordami kursatishni urganib borishlari kerak. Oldiniga ukituvchi yangi elementni urganish jarayonida extiyot va yordam usullarini kursatib beradi va kerakli tushuntirishlarni beradi. SHundan sung ukuvchi yordam yoki extiyot chorasi kursatish uchun chakiriladi, ukituvchi asosiy mashk bajaruvchini boshka tomondan kuzatib boradi, shu bilan birga u extiyot yordami kursatuvchi - u uzi bajariyotganini kuzatib boradi. SHugullanuvchilarini extiyot yordami usullariga urgatishi kerak. SHu bilan bir birga xar bir gimnastik mashkda uziga xos extiyot yordami, uriga xos xavfsizlik chorasi xamda uz-uzini extiyot yullari borligini esda tutish kerak. Uz-uziga yordam kursatish - gimnastikachi xavfli xolatlardan mashkni bajarishni tuxtatib yoki jaroxat olmaslik uchun uni uzartirib mustakil ravishda chikib ketish maxoratiga aytildi. SHugullanuvchilarning ukishi davomida uzini uzi exgiyot kila bilishini urgatib borish ukituvchi vazifasi xisoblanadi. Masalan, brusda elkada tik turishni bajarayotganda yikilib ketsa oldinga yumalab charxpalak bulib oyoklariga tushishi kerak: snaryaddan sakrab tushish yoki akrobatik sakrashlarni bajarayotib yikilib tushishi mumkin bulgan xollarda xam umbalok oshishni bajarish kerak.

Jismoniy yordam va extiyot chorasi.

Bu yordamlar ukuvchi urganayotgan mashkni yoki uning bir kismini tugri va anik yakunlashi maksadida ukituvchining jismoniy kuch bilan yordam kursatishidan iborat buladi.

Turli element va birikmalari texnikasini urgatishida jismoniy yordam shugullanuvchilarda

anik xarakat kilish maxorati yuzaga kelishiga yordam berish kerak. Bir xollarda ukituvchi ularni kullab, shugullanuvchiga fazoda xarakat bajarishga yordam bersa (yunalishini belgilash, amplitudani aniklash), ikkinchi xollarda - kuch sarflash darajasini anik xamda statistik eyaementlarni bajarish va ularda mumkin bulgan uzgarishlarni bajarishni engillashtiradi. Jismoniy yordam asosiy turlariga kuyidagilar kiradi: a) bajarishdagi yordam; b) suyab, ushlab turish (xarakat, xolatni kayd etish); v) xarakatga karib yordam berish.

Olib utish - urganilayotgan element yoki birikmani boshidan oxirigacha jismoniy yordam kursatishga aytildi. «Olib utish» uslublari xarakatlarni umuman egallab olishni engillashtiradi. «Olib utish» yordamini kursatib trener murabbiy shunday jismoniy kuch ishlata bilishi kerakki, u ukuvchining uz xarakatlarini bajarib kuymasin kerak emas. Turtib kuymok - xarakat alovida kismlarini bajarishda kursatiladigan kiska jismoniy yordam. U asosan xarakat jaroxatini urganishda kullaniladi. Xarakatning alovida boskichlarida kiska yordam kursatib, ukituvchi gimnastikachiga xarakatni tezrok, sekinrok yoki xarakat amplitudasini kiskartirish kerakligi xakida xabar etkazadi, snaryaddan uz vaktida aylanish yoki sakrashga yordam beradi. Turli jismoniy yordam turlarining kullash natnjasida ukuvchida xarakat tugri bajarilishini sezish yuzaga keladi, u mashkni kup marta kaytarish natnjasida aniklanib boriladi va keyichalik urganilgan xarakatlarini uzi mustakil bajara oladi. Ta'lim berish boshlangich boskichida «olib utish» va suyab turish yordamlarini kup kullash kerak buladi. Vakt utishi bilan texnikasi usib borib, bu usullar boshkasi bilan almashadi, keyinchalik esa bu yordamlarni kursatishning keragi bulmay koladi. Xalka, brus va yakkachupda mashklarni bajarishda kupincha maxsus tayyorgarlik bilan yonida turib yordam kursatildi. Sport gimnastikasida kutarilish, aylanish turli murakkab sakrash va boshka mashklarni bajarishda gimnastchiga maxsus belboglagich bilan yordam kursatiladi. Ukish jarayonida xarakatlar texnikasini uzlashtirish va mustaxkamlash xar doim xam bir tekisda utmaydi. Ularni bartaraf etish uchun jismoniy yordam va extiyot yordamlari turlarini uzgartirishga tugri keladi. Tugri jismoniy yordan kursata bilish uchun urgatuvchi urganilayotgan mashk xarakatlari texnikasi xususiyatlarini, ukuvchi asosiy kuch ishlata digan laxzani xamda turli boskichda xarakat tezligi uzgarish darajasini yaxshi bilishi shart.

Xaddan tashkari yordam kerakli sezgilar shakllannshiga yordam bermaydi, talim sifatini pasaytiradi, gimnastikachinnng uz kuchiga ishonchini yukotadi. Uz vaktida va tugri yordam kursatish ukitish vaktini kiskartirish va shugullanuvchilarda kerakli iroda, ishonch snfatlarini tarbiyalashga yordam beradi, Extiyot chorasi - gimnastikachini mashkni muvaffakiyatsiz bajarganda trener (murabbiyning) va birga mashk bajaruvchining yordam berishga tayyorligiga aytildi. Extiyot choralarini kurish mashklarni mustakil bajarishda, jismoniy yordam kursatish kamaytirilib yoki umuman kursatilmaganda kuchaytiriladi. Extiyot chora turlari asosiyalar (individual va guruxli) texnik vositalar va moslamalar (belboglagich, yumshatuvchi moslamalar,

porolon matlar va boshkalar) va uzini extiyot kilishni yordamini kursatuvchi mashkni bajarish oxirigicha kullashdan iborat buladi. Extiyot yordamini kursatuvchi mashkni bajarishini oxirigacha kuzatib borishi shart, chunki sakrab orkaga tushgandan sung xam jaraxat olish mumkin xollar yuz berishi mumkin. Extiyot yordami kursatish turlari urganuvchi va yordam kursatuvchining individual xususiyatlariga xam boglik buladi (buyi, ogirligi tezligi, jismoniy kuchi, kuli tuzilishlari va boshkalar). Tekshirish uchun savollar:

1. Jaroxat olish sabablarnii aytib uting.
2. Tugri exgiyot yordami kursatishi nimalarni xal etadi.
3. Jismoniy yordam va extiyot yordami.
4. Ukitish metodikasiga rioya kilish asosiy koidalari.
5. SHifokor nazorati va uz-uzini nazorat kilish.
  
1. Ukvchilarda xarakatlantiruvchi vazifani shakllantirish va takomillashtirish.
2. Ukvchilarni gimnastik mashkclariga urgatish metodikasi.
3. Ginastika darsi tuzilishi.
4. Jismoniy xislatlarning rivojlanishi.
5. Gimnastika darsi vaktini taksimlash.

Maktabda jismoniy tarbiya turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular ichida gimnastika eng muxim vositalardan biri xisoblanadi. Gimnastika barcha yoshdagи gurux bolalari jismoniy tarbiyasining xammabop va samarali vositasi. U shugullanuvchilar barcha rivojlantrishga, ular sogligini yaxshilash va kad rostligi va ukuvchilar xarakatlantiruvchi vazifalarini shakllantirishga yunaltirilgan.

Jismoniy yomashklarga ukitish	Jismoniy xislatlarni tarbiyalash	Kobiliyatlarni baxolashga urgatish.  Asosiy kursatkichlari va ularni muvofik lashtirish
----------------------------------	-------------------------------------	---

Ukvchilardagi xarakatlantiruvchi analizatorlar bir necha yillar mobaynida takomillashtiriladi. 7-14 yoshdan boshlab - xarakatlantiruvchi analizator faol rivojlanadi. 13-14 yoshlarga kelib u yukori darajaga erishadi. Atrof-muxit ta'siri ostida buladigan va xarakatlantiruvchi faoliyat tartibi bilan boglik bulgan bolalar va usmirlardaga xarakatlantiruvchi vazifani shakllantirishda biologik omillarga e'tibor berish lozim.

Akseleratsiya - tana buylama buginlarining jadal usishi, u jismoniy rivojlanish va

mufoklashtiruvchi faoliyatga katta ta'sir kursatadi. Xarakatlantiruvchi vazifaning shakllanishi va takomillashuvini pedagogik omil asosiy belgilarini tadbik kilish yuli bilan amalga oshirish mumkin.

Pedagogik omilning birinchi belgisi xarakatlantiruvchi xarakatlarga urgatish xisoblanadi. Ukvchilarni asosiy gimnastika turli mashklariga urgatish xarakatlantiruvchi vazifa shakllanishiga yordam beradi.

Ikkinci belgi - jismoniy xislatalar rivojlanishi darajasi. Ukvchilarda 7-10 yoshda tezlik, egiluvchanlik va chakkonlik, 11-13 yoshda tezlik kuchi, 15-16 yoshda esa kuch va chidamlilikka e'tibor bergen xolda bir xilda tarbiyalash kerak.

Xarakatlantiruvchi vazifani shakllantirishdagi uchinchi belgi (muxim kobiliyatga urgatish, bushlikda vakt va mushak xarakatlari darajasiga kura xarakatlarni anik baxolash xisoblanadi). Xarakatlantiruvchi analizator faoliyatini fakat jismoniy mashklar yordami bilan maxsus urgatishda takomillashtirish mumkin. unday kobiliyatlarni tarbiyalash uchun tana kismlari bilan sodda va murakkab kilishlar, yurish, yugurish, sakrash, uzoklikka otish, muvozanat, osilish va tayanish mashklari, yukoriga chikish ishlataladi.

Ukvchilarni gimnastika mashklariga urgatish metodikasi.

Sodda mashklar kup xolda kursatish, tushuntrishdan keyinok darxol uzlashтирildи: murakkabroklari uzok muddatli urgatish va turli xil usulblarni tatbik kilishni talab kiladi. Turli sinflarda mashklarni tanlash va ularni utkazish metodikasi shugullanuvchilar yoshi xususiyatlariga boglik.

Kichik mакtab yoshi (7-9 yosh). Ba'zi bir funksional sistemalar skelet-mushak sistemalarni rivojlanishining yakunlanmaganligi sababli 7-9 yoshdagi bolalarga kuyidagi asosiy gimnastika mashklari tavsiya etiladi: yurish, yugurish, ogma utirgichga chikish, gimnastik devorga chikish, uzoklikka otish, 1 m balandlikdagi tusik orkali utish, koptok otish va tutish, nishonga otish, tuldirligan koptoklarii olib utish, muvozanatda mashklar, sakrashlar (uzunlikka va 80 sm.lik balandlikka), akrobatik mashklar - umbalok oshish, dumalashlar, kuraklarda kadni rostlash. 7-9 yoshdagi bolalarga taklif kilish xos, shuning uchun ularni urgatganda ukituvchiga kuyidagi koidalarni gapirish maksadga muvofik buladi: "Men kilgandek kiling", sababli bu yoshdagi bolalarda urtacha kunikmalar sekin shakllanadi, kulgina mashklarni uyinlarga yakinlashtirib yoki uyinlar shaklida olib borish tavsiya etiladi.

Urta maktab yoshi (10-15 yosh). Gimnastika jismoniy xislatlarning kelgusi rivojlanishi, ma'naviy - iroda xislatlarni tarbiyalash, asosiy xarakatlantiruvchi kunikmalarni takomillashtirishga yordam beradi. Urta yoshdagi bolalar usishi va rivojlanishi bir xilda bulmaydi (jinsiy uygonish). Kizlar semiradi va kuch, tezlik, chidamlilik borasida ugil bolalardan orkada koladi. Xarakatlantiruvchi kunikmalariнг shakllanishi ularda tezrok amalga oshadi, shuning uchun ular murakkabroq, mashklarni bajarishga kobiliyatli.

Asosiy usulubiy kursatma - kat'iy uslubiy tartibda materialni urganish, bolalar ukuv materialini eng sodda shakllardan boshlab uncha katta bulmagan kismlar buyicha uzlashtirish kerak. Turli ogirlikdan koptok bilan turli masofadan nishonga otish, yukoriga chikish texnikasi va tezligi. (kizlarda raks xarakatlariiga moyillik)

Bu yoshda xarakatlantiruvchi vazifa tez rivojlanadi, shuning uchun ular berilishina kura murakkab mashklarni egallahsga kobiliyatli.

Katta mакtab yoshi (16-18 yosh). YUKORI jismoniy ish kobiliyati bilan tavsiflanadi. Katta kuch va epchillikni talab kiladigan mashklarni bajarishga kizikish uzgaradi. Kizlar va usmirlar jismoniy tarbiyasn mashgulotlarini aloxida utkazish zarur. Usmirlar asosiy amaliy xarakatlantiruvchi kunikmalar tabiiy va sui'iy tusiklardan utish, turli yukni olib utish, turli aylanishlarni bajarish kobiliyatlarini egallandilar. Barcha jismoniy xislatlarni takomillashtirishdan tashkari kizlar korin muskullari, elka kamari, oyok mushaklarini mustaxkamlashga e'tibor berishi kerak.

Gimnastika darslari. Tuzilishi. Gimnastika mashgulotlari dars shaklida xamda mustakil mashgulotlar shaklida utkazilishi mumkin. Darsda kuyidagi vazifalar tartib bilan xal kilinadi:

1. SHugullanuvchilarni gayrat va vaktni kam ishlatgan xolda eng yukori natijalarga erishishi.
2. Butun mashgulot paytida shugullanuvchilar yukori ish kobiliyatini saklab kolish.
3. SHugullanuvchilar sogligi uchun mashgulotlarni utkazish tartibi, yaxshi shartsharoitlarinn ta'minlash.
4. Gimnastika bilan shugullanish uchun uchta fazalar (buysunuvchi, asosiy, yakuniy).

Darsni utkazishiga bulgan umumiy metodik kursatmalar.

Ta'lim maksadlarini aniklash. Dastlabki vazifa dars maksadi (vazifa) xisoblanadi. Maksadni tugri belgilashga darsning tashkiliy vositalari, uslublari va shakllarini tanlash boglik. Asosiy manba bulib davlat dasturi xizmat kiladi. Darsda ukituvchi shugullanuvchilarga amaliy va sport mashlarini tugri bajarish usullariga urgatadi. Dars vazifalarini aniklab va ularni xal kilish uchun eng yaxshi vositalarni tanlab, ukituvchi muntazam ravishda shugullanuvchilar xarakatini kuzatish kerak.

Ukituvchining yukori talabchanligi uning obrusini - oshiradi. Darsda uta yukori intizomni ushlab turish kerak. Birok butun dars mobaynida ukuvchilarni tang xolatida ushlash shart emas. Ukituvchiga xar doim shugullanuvchilar e'tiborini jalb kila olish imkoniyatini bera oladigan ukuvchilar bilan uzaro munosabatlarni urnatish kerak.

Darsning tayyorlov kismida asosiy kism vazifalarini bajarishga tayyorgarlik amalgalashiriladi. Bu kismda saf mashklari (yugurish, yurish, sakrab turishlar, raks xarakatlari), umumrivojlaniruvchi mashklar (anjomlar bilan, gimnastik devorda, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik uyinlari) tatbik kilinadi. URM ni utkazizishda ukituvchi kuyidagilarni bilish

kerak:

1. Mashklar xakida xabardor kilishning turli usullaridan foydalanish.
2. Erdam kursatish.
3. Xatolarni tugrilash.
4. Maydoichalarda shugullanuvchilarni joylashtirish.

Xabardor kilish usullari:

1. Oddiy kursatishini gapirib berish bilan birlashtirish.
2. Bulingan usul - mashkni kismlarga bulgan xolda kursatishi
3. Kursatish orkali xabardor kilish xarakatlarini kuchirish.

Darsning asosiy kismi. SHugullanuvchilar faoliyati yunalishini annklaydigan umumiy vazifalar kuyidagilar:

1. SHugullanuvchilarning irodasini va jismonii xislatlarini tarbiyalash
2. Xaet uchun muxim bulgan va sport kunikmalarini shakllantirish kim bilan utkazilishidan katiy nazar gimnastikaning xar bir mashgulotida ikki shu vazifa xal kiliadi.

Bu kismda jismoniy xislatlar rivojlanishn uchun maxsus bulgan mashklar bajarilishining umumiy uslubi tatbik kiliadi. Gimnastik kup kurashning barcha turlari ishlatalinadi. Vositalarni navbatlash utuvchilarda turli xarakatlantiruvchi kobiliyat va kunikmalar katta sochini shakllantirshini kuzda tutadi, bunda kuyidagilarni ztiborga olish lozim:

1. Dars asosiy kismi barcha mashklarini bajarish uchun yukori ishga kobiliyatligini saklash sharoitlari
2. Rejada belgilangan mashklarni egallash darajasi. Bitta mashgulotga xali uzlashtirilmagan mashklarni kiritish tugri kelmaydi.

Dars asosiy kismini utkazishga bulgan talablar.

1. Berilish mashkni anik tasavvur etish.
2. Mustaxkam xatolarni egallash va gimnastika mashgulotlariga kizikishni yukotishga yul kuymaslik uchun xar bir shugullanuvchi uchun mashklar bajarilishining engilligi.
3. Xar bir navbatdagi urinishda berilgan mashk, bajarishini sifatini oshirish.
4. Xar bir shugullanuvchi tomonidan berilgan mashklarni optimal ravishda takrorlanishi.
5. Mashklar bajarilishi xavfsizligi, SHugullanuvchilarning jaroxatlanishi ukituvchining yul kuyib bulmaydigan xatosi deb xisoblash kerak.

Demak, ukituvchi kuyidagilarni bilishi kerak: mashk xakida shugullanuchilarni xabardor kilish barcha usullaridan foydalanish, yordam kursatish, shugullanuvchilar xarakatini taxlit kilish va baxo berishi, xatolarni bartaraf etish, mashklar bajarilishi xafsizliligini ta'minlaydigan choralarни tatbik kilish.

*ADABIYOTLAR*

1. *Shimin A.M. Gimnastika.*
2. *Smogevskiy V.M. Gimnastika.*
3. *Orlov P.N. Gimnastika.*
4. *Smolevskiy V.M. "IFK uchun darslik". FiS.*
5. *Popova E.G. "Ishlab chiarish gimnastikasi". Uslubiy kursatmalar. L*
6. *Mixaylova E.I., Ivanov Yu.I. "Ritmik gimnastika". Kullanma. M. "Moskovskaya pravda".*
7. *"Ritmik gimnastika mashgulotlarini utkazdirish uchun tavsiyanomalar". Toshkent Davlat universitet.*
8. *Toshevskiy S.A., Startseva I.D., "Fizkultura va kasb". M. "Fizkultura va sport".*
9. *Usmanaliev T.B. va boshalar. "Ritmik gimnastika". Chimkent 1987y. 25 varok.*
10. *Cheryavskiy V.D. "Ishlab chikarish gimnastikasini ugkazish uslubi va tashkili buyicha kullanma". Toshkent. "Meditrina". Uzbekistan.*
11. *Smolenskiy V.M. Gimnastika va dars berish metodikasi darslik..*
12. *Orlov P.N., Koryakovskiy I.M. Gimnastika: darslik.*
13. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.*
14. *"Maktabda gimnastika mashulotlari tashkili, mazmuni va metodikasi".*
15. *A.G.Brikin, A.M.Shlemin - Gimnastika. JMI darsligi. M.*
16. *V.M.Smolenskiy. Gimnastika va uni ukitish metodikasi, JMI darsligi.*
17. *L.P.Orlov. Gimnastika, darslik.*
18. *V.D.Paliga. Gimnastika. Ped. oliy ukuv yurti sport fak. talabalari uchun ukuv kullanma. M.*
19. *V.I.Fillipovich. Gimnastika pazariyasi va metodikasi M.*